

SAMIMIYLIK KONSEPTINING FRAZEOLOGIK BIRLIKLARDA AKS ETISHI: INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDAGI MAQOL VA IBORALARNING QIYOSIY-LINGVOKULTUROLOGIK TAHLILI

Ro'zmatova Muxlisa Davlat qizi

O'zbekiston Davlat Jahon tillari universiteti, tayanch doktorant, 2-kurs

ruzmatovamukhlisa@gmail.com

<https://orcid.org/0009-0001-5722-1168>

<https://doi.org/10.5281/zenodo.22762114>

Qabul qilindi: 7-sentabr 2026-yil • Ma'qullandi: 14-sentabr 2026-yil • Nashr qilindi: 15-sentabr 2026-yil

Annotatsiya

Mazkur maqola samimiylik konseptining ingliz va o'zbek tillaridagi frazeologik birliklar — maqol va iboralar vositasida repredensiyalanish xususiyatlarini qiyosiy-lingvokulturologik aspektda tadqiq etishga bag'ishlangan. Tadqiqotda ikki lingvomadaniyat vakillarining mazkur konseptga nisbatan shakllantirgan obrazli-kognitiv tafakkur modellari, ularning milliy-madaniy o'ziga xosligi va umumbashariy invariant belgilari aniqlanadi. Tahlil natijalari samimiylik konseptining har ikki lingvomadaniyatda ham yuksak oksilogik maqomga ega ekanligini, biroq uning verballashuv vositalari, obrazli asos va konseptual metaforalar tizimi jihatidan tipologik farqlanishini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar:

konsept, samimiylik, frazeologik birlik, paremiologiya, lingvokulturologiya, konseptual metafora, qiyosiy-tipologik tahlil.

KIRISH

Til hodisalarini madaniyat kontekstidan ajratgan holda tadqiq etish, zamonaviy tilshunoslik metodologiyasi nuqtai nazaridan, yetarlicha to'liq ilmiy natija bermaydi. Shu sababli so'nggi o'n yilliklarda antroposentrik paradigma doirasida rivojlanayotgan lingvokulturologiya va kognitiv tilshunoslik yo'nalishlari tilshunoslikning yetakchi tarmoqlariga aylandi. Ushbu yo'nalishlar nuqtai nazaridan til birligi nafaqat kommunikativ, balki kumulyativ funksiyani ham bajaradi — u xalqning dunyoqarashi, axloqiy-falsafiy qarashlari va ko'p asrlik hayotiy tajribasini o'zida mujassamlashtiradi.

Frazeologik birliklar, xususan, maqol va iboralar ushbu kumulyativ funksiyaning eng yorqin namoyon bo'lish shakli hisoblanadi, zero ular xalq donishmandligining ixcham, ammo teran mazmunga ega bo'lgan tugal shakli sifatida talqin etiladi (Rahmatullayev, 1978).

Samimiylik konsepti insonlararo ishonch, halollik va o'zaro chin dildan bo'lgan munosabatlarning aksiologik negizini tashkil etuvchi fundamental axloqiy-psixologik kategoriya sifatida barcha lingvomadaniyatlarda mavjud bo'lsa-da, uning verbal ifodalanish vositalari, obrazli asosi va baholovchi konnotatsiyasi milliy tilga xos xususiyat kasb etadi. Aynan shu holat mazkur konseptni qiyosiy-tipologik jihatdan o'rganishni dolzarb ilmiy muammoga aylantiradi.

Tadqiqotning dolzarbligi quyidagi omillar bilan belgilanadi: birinchidan, madaniyatlararo kommunikatsiya sohasining kengayishi turli xalqlarning axloqiy-baholovchi konseptlarni til

vositalari orqali qanday ifodalashini bilishni taqozo etadi; ikkinchidan, konseptlarning frazeologik reprezentatsiyasini qiyosiy o'rganish lingvokulturologiya va kognitiv tilshunoslik nazariyasi uchun muhim empirik material beradi; uchinchidan, ushbu masala o'zbek tilshunosligida ingliz tili bilan qiyosiy aspektida hali yetarlicha chuqur yoritilmagan.

Tadqiqotning maqsadi — ingliz va o'zbek tillaridagi samimiylik konseptini reprezentatsiya qiluvchi frazeologik birliklarni aniqlash, ularning semantik-struktur va konseptual-metaforik xususiyatlarini tahlil qilish hamda ikki lingvomadaniyat o'rtasidagi universal va milliy-o'ziga xos jihatlarni ilmiy asoslash.

Belgilangan maqsadga muvofiq quyidagi vazifalar amalga oshirildi:

- samimiylik konseptining lingvokognitiv tabiati va uning fanda yoritilish darajasini aniqlash;
- ingliz tilidagi samimiylik semantik maydoniga oid frazeologik birliklarni to'plash, tasniflash va tahlil qilish;
- o'zbek tilidagi mos frazeologik birliklarni to'plash, tasniflash va tahlil qilish;
- qiyosiy-tipologik metod asosida ikki tildagi frazeologizmlarning umumiy va farqli konseptual-semantik xususiyatlarini aniqlash.

Tadqiqot ob'ekti — ingliz va o'zbek tillarining paremiologik va frazeologik fondiga mansub, samimiylik, halollik, rostgo'ylik semantik maydoniga oid birliklar; predmeti — ularning semantik-struktur, konseptual-metaforik va lingvokulturologik xususiyatlari.

Tadqiqotning metodologik asosini qiyosiy-tipologik metod, komponent tahlil metodi, konseptual metafora tahlili hamda lingvokulturologik tahlil metodlari tashkil etadi.

NAZARIY ASOS

Konsept va frazeologik birlik: tilshunoslik nazariyasidagi talqinlar

Zamonaviy kognitiv tilshunoslikda "konsept" tushunchasi insonning dunyoni bilish jarayonida shakllangan, til vositalari orqali reprezentatsiya qilinuvchi mental-madaniy birlik sifatida talqin etiladi. Vorkachevning (2007) ta'kidlashicha, lingvokulturologik konsept — bu tilda lug'aviylashgan, ammo undan kengroq bo'lgan, madaniy ahamiyatga ega mental birlikdir. Demak, konsept mantiqiy-tushunchaviy yadro bilan birga assotsiativ, obrazli va baholovchi komponentlarni ham o'z ichiga oladi.

Samimiylik konseptining tarkibiy tuzilishida yadroviy zonani haqqoniylik, ochiqlik va ikkiyuzlamachilikning yo'qligi kabi integral semalar tashkil etsa, periferik zonada har bir lingvomadaniyatga xos qo'shimcha konnotativ ma'no ottenkalari joylashadi.

Frazeologik birlik tilning eng barqaror, obrazli va ekspressiv-konnotativ qatlamini tashkil etadi. Rahmatullayevning (1978) fikricha, frazeologik birliklar tayyor holda xotirada saqlanuvchi va nutq jarayonida o'zgaras tarkibda qo'llanuvchi birikmalar sifatida xalq tafakkurining o'ziga xos ifoda shaklidir. Aynan ushbu barqarorlik va obrazlilik xususiyati frazeologizmlarni lingvokulturologik tadqiqotlar uchun eng samarali manbalardan biriga aylantiradi.

Konseptual metafora nazariyasi va lingvokulturologik tahlil metodologiyasi

Lakoff va Johnsonning (1980) kognitiv metafora nazariyasiga ko'ra, insonning abstrakt tushunchalar (jumladan, ichki his-tuyg'ular) haqidagi tasavvuri ko'pincha konkret, jismoniy tajribaga asoslangan konseptual metaforalar orqali shakllanadi. Ushbu nazariy asosga tayanib, samimiylik konseptining ham ko'p hollarda jismoniy obrazlar (yurak, dil, qo'l, yuz) orqali metaforik tarzda ifodalanishini kuzatish mumkin.

Lingvokulturologik tahlil tilni madaniyat bilan uzviy bog'liqlikda o'rganishga asoslanadi. Maslovaning (2001) ta'kidlashicha, lingvokulturologiya til va madaniyatning o'zaro ta'siri natijasida yuzaga kelgan, xalqning milliy-madaniy ongini aks ettiruvchi til birliklarini o'rganuvchi fan sohasidir. Shunga ko'ra, frazeologik birlikni tahlil qilishda nafaqat uning lingvistik tuzilishi, balki unda mujassamlashgan madaniy-tarixiy kontekst, real turmush tarzi unsurlari ham hisobga olinadi.

Vezhbitskaya (1996) turli tillarning hissiy konseptlarni ifodalash darajasi bir xil emasligini, ba'zi tillarda (masalan, rus tilida) hissiyotga oid leksik-grammatik vositalar boshqa tillarga (masalan, ingliz tiliga) nisbatan ancha boy ekanini ta'kidlaydi. Ushbu qonuniyat o'zbek va ingliz tillari misolida ham o'zining amaliy tasdig'ini topadi, buni quyidagi tahliliy qismda ko'rish mumkin.

TAHLILIY QISM***Ingliz tilida samimiylik konseptini reprezentatsiya qiluvchi frazeologik birliklar***

Ingliz tilining frazeologik fondida samimiylik, ochiqlik va halollik semantik maydoniga oid birliklar nisbatan boy va tarmoqlangan tizimni tashkil etadi (Cambridge Dictionary, n.d.). Tahlil natijalariga ko'ra, ushbu birliklarning katta qismi "yurak" (heart), "qo'l" (hand) hamda "karta o'yini" (cards) obrazlariga asoslangan bo'lib, bu inson ichki dunyosining tashqi muhitga ochiqligini ifodalaydi.

Ibora / Maqol	So'zma-so'z ma'nosi	Semantikasi
to wear one's heart on one's sleeve	yurakni yengga taqib yurish	his-tuyg'ularni yashirmasdan, ochiq namoyon etish
to open one's heart	yurakni ochish	chin dildan so'zlash, ichki kechinmalarni baham ko'rish
to put/lay one's cards on the table	kartalarni stolga qo'yish	niyat va his-tuyg'ularni oshkora bayon etish
to come clean	toza bo'lib chiqish	haqiqatni tan olish, e'tirof etish
to speak from the heart	yurakdan so'zlash	chin dildan, samimiy ifoda
honesty is the best policy	halollik — eng yaxshi siyosat	haqqoniylikning strategik ustunligi
in all sincerity	to'la samimiyat bilan	hech qanday yolg'onsiz, chin dildan
to bare one's soul	qalbni ochib tashlash	eng chuqur his-tuyg'u va sirlarni oshkor etish

Yuqoridagi jadval ma'lumotlari (Learn English Today, n.d.) tahlili shuni ko'rsatadiki, ingliz tilida samimiylik konsepti asosan tana a'zolari (yurak, qalb) va jismoniy harakat obrazlari (biror narsani ochish, tozalash) orqali metaforik tarzda konseptuallashtiriladi. Bu holatni "ICHKI HIS — YOPIQ MAKON" konseptual metaforasining variantlashuvi sifatida talqin etish mumkin (Lakoff & Johnson, 1980): samimiylik nimanidir yopiq holatdan ochiq holatga o'tkazish akti sifatida idrok etiladi (open one's heart, come clean, put cards on the table).

Shuningdek, ingliz paremiyalarida samimiylik ko'p hollarda halollik (honesty) tushunchasi bilan sinonimik yoki yaqin munosabatda ifodalanadi, bu esa ingliz lingvomadaniy ongida mazkur ikki kategoriyaning bir-biriga yaqin, funksional jihatdan bir-birini to'ldiruvchi tushunchalar sifatida idrok etilishidan dalolat beradi.

O'zbek tilida samimiylik konseptini reprezentatsiya qiluvchi frazeologik birliklar

O'zbek tilining frazeologik va paremiologik fondida samimiylik konsepti "dil", "ko'ngil", "yurak" kabi ichki dunyoni bildiruvchi leksemalar atrofida shakllangan boy uyaga ega (Shomaqsudov, 2005). O'zbek xalq og'zaki ijodida mazkur konsept ko'pincha o'zining antonimik jufti — ikkiyuzlamachilik, munofiqlik bilan qarama-qarshi qo'yilgan holda ifodalanadi, bu esa antitetik ifoda uslubining o'ziga xos namoyon bo'lishidir.

Ibora / Maqol	Semantikasi
ko'ngildagini til aytadi	insonning ichki niyati nutqida bevosita aks etishi, chin so'z
dili pok, tili pok	ichki va tashqi mohiyatning bir xilligi, poklik
tili boshqa, dili boshqa	aytilgan so'z bilan ichki niyatning nomuvofiqligi, ikkiyuzlamachilik
ko'ngli tosh	his-tuyg'usizlik, samimiyatsiz, sovuq munosabat
chin dildan	hech qanday yashirin niyatsiz, sof samimiyat bilan
dildan-dilga yo'l bor	sof niyat va samimiy munosabatning o'zaro yetib borishi
ochiq chehra, ochiq ko'ngil	hech narsani yashirmaydigan, samimiy tabiat

Ibora / Maqol	Semantikasi
yalab-yulqib gapirmoq	yasama, soxta muloyimlik, samimiyatsizlik ko'rinishi

O'zbek frazeologizmlarida samimiylik konsepti (Hojiyev, 2001), birinchi navbatda, "dil" va "til" munosabati orqali ifodalanadi: ikki komponent muvofiq bo'lganda (ko'ngildagini til aytadi, chin dildan) bu samimiylik belgisi hisoblanadi, ular o'zaro ziddiyatga kirishganda (tili boshqa, dili boshqa) esa soxtalik, ikkiyuzlamachilik sifatida baholanadi. Bu "DIL — HAQIQIY MOHIYAT, TIL — TASHQI KO'RINISH" konseptual modelining o'ziga xos ko'rinishi bo'lib, unda tashqi nutq faqat ichki mohiyatning aynan aksi bo'lgandagina ijobiy baholanadi (Nurmonov, 2013).

Bundan tashqari, o'zbek tilida "yuz" va "chehra" obrazlari ham faol qatnashadi (ochiq chehra, ochiq ko'ngil), bu esa jamoaviy-ijtimoiy munosabatlarga asoslangan mentalitet xususiyati bilan bog'liq bo'lib, individning ijtimoiy muhitdagi obro'si samimiylik darajasi bilan uzviy bog'liq ekanligini ko'rsatadi.

Ingliz va o'zbek tillari frazeologizmlarining qiyosiy-tipologik tahlili

Ikki tildagi samimiylik konseptini representatsiya qiluvchi frazeologik birliklarni qiyosiy tahlil qilish natijasida quyidagi umumiy (universal) va farqli (differensial) xususiyatlar aniqlandi.

a) Universal (umuminsoniy) xususiyatlar

- ikkala tilda ham samimiylik konsepti asosan "ichki a'zo" (yurak / dil / ko'ngil) obrazi orqali representatsiya qilinadi — bu holat insoniyatning umumiy kognitiv tajribasidan kelib chiqadi, chunki ichki emotsional holat jismoniy manzil metaforasi orqali konseptuallashtiriladi;
- har ikki lingvomadaniyatda ham samimiylik yuksak aksiologik maqomga ega, soxtalik va ikkiyuzlamachilik esa salbiy baholanadi;
- ikkala tilda ham "ochiqlik — yopiqlik" oppozitsiyasi bazaviy konseptual metafora vazifasini bajaradi (open one's heart — ochiq ko'ngil; to come clean — dili pok).

b) Differensial (milliy-madaniy) xususiyatlar

- ingliz tilida jismoniy harakat va predmetli obrazlar (karta, qo'l harakati) nisbatan faol qo'llaniladi, bu individual-pragmatik munosabatlarga yo'naltirilgan g'arb mentaliteti bilan bog'liq bo'lishi mumkin;
- o'zbek tilida "dil-til" muvofiqligi markaziy konseptual o'q vazifasini bajaradi, bu ko'proq axloqiy-falsafiy, jamoaviy qadriyatlarga asoslangan sharq tafakkuriga xos xususiyat sanaladi;
- o'zbek frazeologizmlarida ijtimoiy nazorat va jamoaviy obro' unsuri (yuzi ochiq, yuzi qora) nisbatan yuqori faollik ko'rsatadi, ingliz tilida esa individual halollik (honesty) tushunchasi ustuvorlik qiladi;
- ingliz tilida samimiylik ko'pincha halollik (honesty) bilan tenglashtirilsa, o'zbek tilida u ko'proq poklik, safo kabi ma'naviy-axloqiy tushunchalar bilan uyg'unlashadi.

Yuqorida keltirilgan konseptual farqlar quyidagi jadvalda yakuniy tarzda tizimlashtirilgan.

Xususiyat	Ingliz tili	O'zbek tili
Markaziy obraz	heart, hand, cards	dil, ko'ngil, til, yuz
Konseptual model	ICHKI HIS — YOPIQ MAKON	DIL — MOHIYAT, TIL — KO'RINISH
Baholash asosi	individual halollik	jamoaviy poklik va obro'
Antonimik ifoda (soxtalik)	to wear a mask, insincere	tili boshqa, dili boshqa; ko'ngli tosh

XULOSA

O'tkazilgan qiyosiy-lingvokulturologik tahlil natijalari samimiylik konseptining ingliz va o'zbek tillarida umumbashariy axloqiy qadriyat sifatida baholanishini, biroq uning frazeologik representatsiya vositalari jihatidan aniq tipologik farqlanishini tasdiqladi. Ingliz tilida mazkur konsept asosan jismoniy harakat va predmetli metaforalar (yurakni ochish, kartani stolga qo'yish) orqali, individual halollik nuqtai nazaridan verballashtirilsa, o'zbek tilida u "dil" va "til" muvofiqligi, jamoaviy poklik hamda ochiq yuz kabi obrazlar vositasida, ko'proq axloqiy-ma'naviy va ijtimoiy kontekstda namoyon bo'ladi.

Olib borilgan tadqiqot shuni tasdiqladiki, konseptlarning tilda verballashuvi nafaqat umuminsoniy kognitiv jarayonlar, balki har bir xalqning tarixiy taraqqiyoti, turmush tarzi va mentaliteti bilan ham chambarchas bog'liqdir. Mazkur natijalar tarjimashunoslik, chet tili o'qitish metodikasi hamda madaniyatlararo kommunikatsiya nazariyasi uchun muayyan amaliy ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotni kelgusida boshqa tillar (xususan, rus, turk) materiali asosida kengaytirish istiqbolli ilmiy yo'nalish sifatida baholanadi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Cambridge Dictionary. (n.d.). *Honesty, openness & sincerity — SMART Vocabulary*. Retrieved September 10, 2026, from <https://dictionary.cambridge.org/topics/honesty-and-dishonesty/honesty-openness-and-sincerity>
2. Hojiyev, A. (2001). *Hozirgi o'zbek tili faol so'zlarining izohli lug'ati*. Toshkent.
3. Lakoff, G., & Johnson, M. (1980). *Metaphors we live by*. University of Chicago Press.
4. Learn English Today. (n.d.). *English idioms by theme — Frankness and sincerity*. Retrieved September 10, 2026, from <https://learn-english-today.com/idioms/idiom-categories/frankness/frankness-sincerity.html>
5. Maslova, V. A. (2001). *Lingvokulturologiya*. Akademiya.
6. Nurmonov, A. (2013). O'zbek tilida lingvokulturologik yo'nalish. *O'zbek tili va adabiyoti*, (4), 3–9.
7. Rahmatullayev, Sh. (1978). *O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati*. O'qituvchi.
8. Shomaqsudov, Sh. (Tuz.). (2005). *O'zbek xalq maqollari*. Fan.
9. Vezhbetskaya, A. (1996). *Yazik. Kultura. Poznaniye*. Russkiye slovari.
10. Vorkachev, S. G. (2007). Lingvokulturnaya kontseptologiya: stanovleniye i perspektivi. *Izvestiya RAN. Seriya literaturi i yazika*, 66(2), 13–22.

Abstract.

This article is devoted to a comparative linguocultural study of the representation of the concept of sincerity through phraseological units, particularly proverbs and idiomatic expressions, in the English and Uzbek languages. The study identifies the figurative-cognitive models of thinking formed by representatives of the two linguocultures with regard to this concept, as well as their national-cultural specificities and universal invariant features. The findings demonstrate that the concept of sincerity occupies a high axiological status in both linguocultures; however, it differs typologically in terms of its means of verbalization, figurative basis, and system of conceptual metaphors.

Keywords:

concept, sincerity, phraseological unit, paremiology, linguoculturology, conceptual metaphor, comparative-typological analysis.

Аннотация.

Статья посвящена сопоставительно-лингвокультурологическому исследованию особенностей репрезентации концепта «искренность» посредством фразеологических единиц, в частности пословиц и устойчивых выражений, в английском и узбекском языках. В исследовании выявляются образно-когнитивные модели мышления, сформированные представителями двух лингвокультур по отношению к данному концепту, а также их национально-культурная специфика и универсальные инвариантные признаки. Результаты анализа показывают, что концепт «искренность» обладает высоким аксиологическим статусом в обеих лингвокультурах, однако характеризуется типологическими различиями в средствах вербализации, образной основе и системе концептуальных метафор.

Ключевые слова:

концепт, искренность, фразеологическая единица, паремиология, лингвокультурология, концептуальная метафора, сопоставительно-типологический анализ.